

AVTOMOBIL TERMINLARINING O'RGANILISHI

Axrarova Nigora Sobirovna,

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Avtomobilsozlik va unga aloqador tarmoqlarning jadal rivojlanishi tufayli terminologik birliklar sonining tez o'sishi ko'plab nashrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq, taqdim etilganlarning ziddiyatli tabiati ma'lumotlar ba'zan maxsus adabiyotlar va texnik hujjatlarni tushunishda bir qator noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolar terminlarni tartibga solish va har tomonlama unifikatsiya qilish zarurligini isbotlaydi. Muammolari va asosiy tushunchalari shakllangan paytdan boshlab maxsus lug'at sohasida ayniqsa jadal izlanishlar kuzatildi. Ushbu maqolada shu haqidagi fikrlar yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, erkin, turg'un iboralar, semantika, terminlarni shakllantirish usullari, modellari va xususiyatlari, termin elementlari turlari, motivatsiyasi turlari; terminologik so'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlari.

Аннотация. В связи с быстрым развитием автомобилестроения и смежных отраслей наблюдается стремительный рост числа терминологических единиц, что привело к появлению большого количества публикаций. Однако противоречивый характер представленных материалов иногда вызывает ряд трудностей при понимании специальной литературы и технической документации. Подобные проблемы свидетельствуют о необходимости упорядочения и всесторонней унификации терминологии. С момента формирования проблематики и основных понятий в области специальной лексики наблюдаются особенно интенсивные исследования. В данной статье представлены сведения и размышления по данному вопросу.

Ключевые слова: терминология, свободные и устойчивые выражения, семантика, способы формирования терминов, модели и особенности, виды терминологических элементов, виды мотивации, специфические особенности терминологических словосочетаний.

Abstract. Due to the rapid development of the automotive industry and related sectors, the number of terminological units has been growing quickly, leading to the emergence of numerous publications. However, the contradictory nature of the presented materials sometimes causes a number of ambiguities in understanding specialized literature and technical documentation. Such issues demonstrate the necessity of regulating and comprehensively unifying terminology. Since the formation of problems and key concepts, particularly intensive research has been observed in the field of specialized vocabulary. This article provides information and reflections on these issues.

Keywords: terminology, free and fixed expressions, semantics, methods of term formation, models and features, types of term elements, types of motivation, specific features of terminological word combinations.

Kirish. Inson kishilik jamiyati orttirgan tajribani so'z orqali o'zlashtiradi, chunki tafakkur so'z yordamida sodir bo'ladi. So'z til birligi sifatida tushunchalarni ifodalaydi.

Tildagi terminlar majmui har qanday termini tizim sifatida tashkil etadi. Tilshunoslik fanida terminlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi terminologiya va unga yaqin bo'lgan nomenklatura tushunchasini aniq belgilash va ular o'rtasidagi farqlarni ajratish muhim masala hisoblanadi. «Terminologiya» so'zi lotincha terminus va grekcha logos so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «terminlar (atamalar) haqidagi fan» ma'nosini anglatadi.

Terminologiyani ishlab chiqish jarayonida terminologiya va unga mos keladigan tushunchalar tizimi o'rtasida juda ko'p turli xil nomuvofiqliklar paydo bo'ladi, bu esa

kasbiy aloqa sohasida terminlarning ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Buning sababi: fanning rivojlanishi va uning jamiyat hayotidagi rolining oshishi, turli tillardan terminlarning o‘zlashtirilishi va ularni to‘plashning juda tez sur‘ati bo‘lishi mumkin. Bu muammolar natijasida terminologiyalarni tartibga solish va tizimlashtirish zarurati tug‘iladi va buning uchun til xususiyatlari va terminologiya rivojlanishining qonuni haqida bilimga ega bo‘lish zarur. Demak, terminologiyaning asosiy maqsadi terminlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida atamashunoslikning shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator muammolarni (nazariy va amaliy) hal qilish kerak.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, terminologiya va chet tillarini o‘qitish metodikasi masalalari ko‘plab olimlar tomonidan har tomonlama o‘rganilgan. Xususan, K.A. Kasatkina va S.V. Grinev-Grinevich ishlarida terminlarning nazariy asoslari, ularning tizimlashtirilishi hamda kasbiy kommunikatsiyadagi o‘rni yoritilgan. R.F. Pronina va Shirinova E. tadqiqotlarida esa ilmiy-texnik matnlarni tarjima qilish hamda sohaviy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, T. Bushuy va Sh. Safarov ishlari terminlarni o‘rganishda lingvistik tahlil metodlari va metodologiyasining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Avtomobil terminlarini o‘rganishda va o‘rgatishda quyidagi metodik tavsiyalarga e‘tibor berish lozim: 1) ingliz va fransuz tillarini o‘qitishda terminlarning lingvistik xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur; 2) terminlarni o‘qitish borasida ularni ingliz va o‘zbek, fransuz va o‘zbek tilidagi terminlar bilan taqqoslab o‘qitish samarali bo‘ladi; 3) ingliz va fransuz tillaridagi avtomobil terminlarini o‘rgatishda talabalarning o‘zbek va ingliz, o‘zbek va fransuz tillardan bo‘lgan til tajribalarini hisobga olish lozim; 4) mashq bajarish orqali leksik ko‘nikma shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar va natijalar. Terminologiyaning eng dolzarb vazifalari qatorida quyidagi nazariy vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin: maxsus leksik birliklarning asosiy turlarini belgilash va tavsiflash; terminlarni shakllantirish usullari, modellari va xususiyatlarini o‘rganish; termin elementlari turlari va termin motivatsiyasi turlari; termin va terminlarning umumiy xususiyatlarini aniqlash; aloqa jarayonlarida terminologiyaning rolini tahlil qilish; terminologiyaning til tizimidagi o‘rnini aniqlash; terminlarning semantik o‘ziga xosligini umumiy lug‘at tarkibidagi so‘zlar va erkin, turg‘un iboralar bilan taqqoslab o‘rganish; terminologik so‘z birikmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini so‘z birikmalariga qiyoslab o‘rganish. Chet tillarini o‘qitishda turli tillardagi terminlarning quyidagi lingvistik xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur: Ingliz va fransuz tillardagi tub terminlar yakka leksik birlikdan tashkil topgan bo‘lib, ma’noli morfemalarga bo‘linmaydi, tuzilishiga ko‘ra birikma terminlar ikki leksemadan tashkil topgan ikki komponentli hamda uch va undan ortiq leksemadan tashkil topgan ko‘p komponentli birikma terminlarga bo‘linadi.

Yangi termin ma'nosi bilan tanishish ikki usul – tarjimasiz yoki tarjima vositasida bajariladi. Tarjimasiz usulda ikki toifa ichki va tashqi ko'rgazmalilikdan foydalanib kelinadi. Yangi leksik birlikning ma'nosini egallash chog'ida qo'llaniladigan metodik usullar quyidagi omillarga bog'liqdir: terminning xususiyati; aktiv/passiv terminga oidligi; ta'lim bosqichi va talabalar saviyasi; yangi terminning taqdim etiladigan shakli (eshitib yoki o'qib idrok etish); yangi birlikni tanishtirish joyi (dars, darslik, lug'at) kabilar.

Taqdimot jarayoni quyidagicha tashkil etiladi. Yangi so'z tarjimasiz usul bilan o'rgatilganda bayon, rasm, matn, audiotasmada eshittirib, namoyish qilinib, taxminan mana bunday topshiriqlar beriladi:

- termin ma'nosini tushunib oling;
- tarjima qiling;
- gapda qo'llang va h.k.

Leksik birlikning ma'nosi bilan tanishish, uni o'zlashtirish yo'lidagi birinchi bosilgan ta'limiy qadam. Yangi so'zning birikish xususiyatlarini o'rganib olish maxsus ikkinchi bosqichni taqozo etadi. Ushbu bosqichda terminlarni takrorlash, jonli nutqda qo'llash mashqlari bajariladi. Leksik birlik ko'nikmaga kirish uchun bajariladigan mashqlarda uni ikki xil ishlatish usuli mavjud: o'rganilayotgan so'z bir joyda turli birliklar bilan ishlatiladi yoki har xil o'rinlarda yangi so'z birikmalari yoki o'zgarib turadigan joylarda ishlatib, mashq bajarish orqali leksik ko'nikma shakllantiriladi.

Lesik mashqlar informatsion va operatsion qismlardan tashkil topadi. Birinchi qismi ko'rsatma berish va ijro namunasi bo'lib, tilga oid qoida bilan hamda nutq amaliyotini birlashtiruvchi oraliq mashqlardan iborat. Terminning qo'llanilishi ko'nikma hosil qilishda oxirgi bosqich bo'lib, ma'nosi ochilgan va nutqda ishlatila boshlagan terminning nutq jarayonida erkin ishlatilishi, ko'nikmalardan malakaga o'tish davriga to'g'ri keladi. Mashq qilishdan nutq amaliyotiga qadam qo'yish fikr bayon qilishda ong ishtirokisiz avtomobil termini ishlatish tushuniladi.

Termini o'zlashtirganlik darajasini nazorat qilish esa atayin surishtirish, maxsus so'rash orqali emas, balki bevosita nutq faoliyatida amalga oshiriladi. Kasbga tayyorlash jarayonida terminlarni o'rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Chet tilini o'rgatishda lug'atdan foydalanishni oqilona chegaralash tamoyili.
2. Til o'qitishda leksik birliklar taqdimoti muayyan maqsadga qaratilganligi: leksik operatsiyani mustahkalash uchun qo'llaniladigan birliklar aniq ko'nikmani hosil qilishga mo'ljallanadi va boshqa birliklar bilan uyg'un ishlatiladi.
3. Leksik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularni o'zlashtirishga aloqador psixologik jihatlarni hisobga olish: taqdimot va mashq qilish davrlarida leksik birliklarning mavhum tushuncha ifodalaydiganlarini ta'riflash vositasida, narsaga tegishlilari ko'rgazmalilik yordamida, leksik birliklar qiyoslash va guruhlash yo'li bilan, funksional (yordamchi) terminlar esa kontekstda beriladi.

4. Ta'limning didaktik va lingvodidaktik qonuniyatlarini hisobga olish tamoyili: har bir leksik birlik taqdimot, mashq qilish va qo'llash bosqichlarida borgan sari kengaytirilib, ya'ni ma'no doirasi, tovush va yozish timsollari va turli birikmalar, kontekst hamda guruhlarda qo'llanilishi izchillik bilan o'rgatib boriladi.

5. Nutq malakalarini o'stirish va shu jarayonda avtomobilga oid terminni egallashni birga olib borish tamoyili: terminni egallash jarayoni materialni o'zlashtirish va ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Fan-texnika sohasida ilmiy tushunchalarni nomlash va bayon etishda terminlar alohida o'rin tutadi, hech bir fan sohasini terminlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyo tilshunosligining terminologiya maktablari, xususan, Avstriyadagi «Vena terminologiya maktabi», Rossiyadagi «Rossiya terminologiya maktabi», Chexoslovakiyaning «Praga terminologiya maktabi» kabilar terminlarning fan sohalarida naqadar muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

Ma'lumki, jamiyat hayotida yuz bergan har qanday texnik-texnologik jarayon, yaratilgan kashfiyot, ilm-fan sohalaridagi terminologik apparati boyib boradi.

O'zbek avtoyo'l terminologiyasida ham qisqartma terminlar mavjud, ammo frazeologik terminlar kuzatilmaydi. Masalan, YHX (Yo'l harakati xavfsizligi), AYT (avtoyo'l tirkamalari), AYT (avtomobilyo'l tuguni), NYBQ (neftli yo'l bitumlari qayishqoqligi) kabi terminlar qisqartma terminlar sirasiga kiradi. Aytilganlar asosida avtoyo'l terminlarini struktur jihatdan quyidagi guruhlarga ajratishni ma'qul ko'ramiz: a) sodda terminlar; b) qo'shma terminlar; 3) birikma terminlar; 4) qisqartma terminlar. Sodda terminlar bir asosli, ularda shakliyma'noviy yaxlitlik ko'zga tashlanadi. Misollar: shibbalash, planirovkalash, rejalash, shosse, shtir, aktivator, armatura, quvur, izol. Ot turkumiga mansub sodda terminlarning aksariyati o'zlashma qatlamga oid. Fe'l turkumiga mansublarigina o'zi qatlam birlikdir. Biroq fe'l termin-leksemalarning asos qismlari aksar hollarda o'zlashma qatlamga oid bo'ladi. Shu asosida o'zbek terminosistemasida mavjud yo'lsozlikka oid sodda terminlarni derivativ xususiyatlari asosida ikki guruhga bo'lish mumkin: a) sodda tub terminlar: shosse, shtir, qo'shimchalar, chuviq, yurgizish kabilar; b) sodda yasama terminlar: betonlash, chuvuqli, shibbalash, kovlagich, yo'lsoz. Qo'shma terminlar birdan ortiq asos o'zaro birikib, to'la – to'kis qo'shma so'zga aylanishidan hosil bo'ladi.

Avtoyo'l terminlari tizimida qo'shma terminlar ko'p: *qalamto'sin, yarimko'prik, suvto'siq, poydevor, tagtiralma, devustun* kabilar. Yo'lsozlik terminlari tizimida juft terminlar kam uchraydi. Masalan, temir –beton, termos –bunker, sement–tuproqli kabilar.

Avtoyo'l terminosistemasida birikma terminlardan yasalgan qisqartma terminlar ham mavjud, bunday terminlar, asosan, quyidagi tartibda shakllantirilgan: 1) birikma termin komponentlarining bosh harfi asosida hosil qilinadi. Masalan: ABT (avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi) ATXKP (avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish punktlari) kabilar; 2) birikma terminning birinchi komponenti birinchi bo'g'ini va keyingi komponentlarini

to'liq qo'llash asosida hosil qilinadi. Masalan: AYOQSH (avtomobilga yoqilg'i quyish shahobchasi). Uch ma'noli o'ziga xos radiator terminida quyidagi ma'nolar ajralib turadi: 1) ichki yonuv dvigatelining kanal tizimi orqali aylanib yuradigan sovutish suvi yoki moy haroratini pasaytiradigan qurilma (avtomobil sanoatida); 2) isitish tizimlari uchun issiqlik moslamasi (issiqlik texnikasida); 3) issiqlik hosil qiluvchi sovutish elementi qurilmasi (radioelektronikada). Ushbu terminning barcha ma'nolari uchun umumiy semantik xususiyat "isitish yoki sovutish uchun texnik qurilma" sifatida belgilanishi mumkin. Terminologiya o'z rivojlanishida bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi: tizimlashtirish, normallashtirish, unifikatsiya qilish va standartlashtirish va bu bosqichlar mantiqan birin-ketin davom etadi. Aytish joizki, muayyan fan sohasi terminologiyasining mukammallik darajasi ko'p jihatdan fanning o'zi rivojlanishiga bog'liq. Terminologiya fanda konseptual paradigmalarni tuzatish, yangilash va efirga uzatishning asosiy vositasi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Avtomobil terminlar to'plami ingliz va fransuz tillarida so'zlashuvchilar uchun kommunikativ va madaniy-tarixiy nuqtai nazardan muhim bo'lgan ochiq, o'rnatilgan, dinamik rivojlanayotgan terminologik tizimdir. Ishning amaliy ahamiyati katta bo'lib, tadqiqot natijalaridan terminshunoslik, leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik bo'yicha maxsus kurslarda, shuningdek, "Avtomobillarga xizmat ko'rsatish", "Maxsus maqsadli avtomobillar", "Transport va texnologik mashinalar va komplekslardan foydalanish" kabi mutaxassislik talabalariga ingliz va fransuz tillarini o'rgatish amaliyotida foydalanish mumkin.

Xulosa. Xulosa tariqasida quyidagilarni ta'kidlash lozim: ingliz va fransuz tillarini o'qitishda terminlarning lingvistik xususiyatlarini e'tiborga olish; terminlarni o'qitish borasida ularni ingliz va o'zbek, fransuz va o'zbek tilidagi terminlar bilan taqqoslab o'qitish samarali bo'ladi. Bugungi kun uchun muhim bo'lgan, ijtimoiy muhit taqozo etayotgan tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bu sohalar leksikasi, ya'ni terminologiyasini tadqiq qilishdir. Terminologiyani o'rganish umumilmiy ahamiyat kasb etadi. Taraqqiy etgan terminologik sistemalar rivojlangan va rivojlanayotgan adabiy tillarning muhim belgilaridandir. Shu va boshqa sabablarga ko'ra biz terminologiya, ya'ni avtomobil terminologiyasini qisman o'rganishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Касаткина К.А. Формирование межкультурной компетенции в группах студентов нелингвистических специальностей. Теоретические и практические аспекты лингвистики, литературоведения, методики преподавания иностранных языков: сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции. Кафедра теории и практики иностранных языков и лингвистики НГПУ им. К. Минина 2015 г.
2. Shirinova E. O'zbek tili bank-moliya terminologiyasi. Filol.fan.bo'yicha falsafa dok-ri...diss. avtoref. – Toshkent, 2020.
3. Гринев-Гриневич С. В. Терминоведение. Москва Академия, 2008 г.
4. Пронина Р.Ф. Перевод английской научно-технической литературы. 3-е изд.
5. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent, 2007.